

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MEHNAT FAOLIYATIDA O'Z O'ZINI ANGLASHGA O'RGATISH TEXNALOGIYALARI

Abdug'afforova Navbahor Botirjon qizi

Namangan davlat pedagogika inistituti Ta'lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi [Maktabgacha ta'lim]
mutaxassisligi 2-kurs magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22246356>

Annotatsiya: Mehnat fa'oliyati har bir bolaning yosh xususiyatidan kelib chiqib tashkil etiladi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat fa'oliyatida o'zini anglashga o'rgatish texnologiyalari xaqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat, o'yin, munosabat, jismoniy o'yin, harakatli o'yin, ko'nikma, metod, o'yinchoqlar,

Yurtimizda Maktabgacha ta'lim soxasiga juda katta etibor ko'rsatilmoqda. Yosh tadbirkorlarga katta imkoniyatlar berilmoqda. yurtboshimiz tashabbuslari asosida yurtimizda maktabgacha ta'lim tizimida ko'plab qonun va farmonlar qabul qilindi. Shulardan,

Uzluksiz ta'lim tiziming birlamchi bo'g'ini hisoblanga maktabgacha ta'lim soxasi har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz raxbari O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “maqsadimiz kelgusi 3-4 yilda mamlakatimizdagi bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga to'liq qamrab olishdan iborat” deb takidlagan.

Bolaning barkamol, har tomonlama yetuk shaxs bo'lib tarbiyalanishda maktabgacha ta'limning o'rni beqiyosdir. Bolalarni mehnatsevarlikka o'rgatish, o'z mehnatini qadrlash hissini uyg'otishda tarbiyachining mahoratiga bog'liq. Bolaning har tomonlama barkamol bo'lib tarbiyalanishida mehnat faoliyatining o'rni katta. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat fa'oliyati bilan bog'liqdir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Bolalar mehnatining muhim belgisi uning malum maqsadga qaratilganligidir. Bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib mehnat fa'oliyatlari tashkil qilinadi. Mehnat fa'oliyati o'yin bilan chanbarchas bog'liqdir. Bolalar qanchalik kichik bo'lsa, ularning ishi o'yinga aylanadi. Ular mehnatni o'yin kabi bajarishadi. Bolalarga mehnat faoliyatini tushuntirishda tarbiyachi turli o'yinlar orqali tushuntirishi kerak, aks holda bolalarda mehnatga nisbatan zerikish paydo bo'ladi.

Mehnati fa'oliyati bolalardan diqqat, o'tkir zehnlilik, topqirlik, bilib olgan malaka va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llay bilish, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat faoliyati bolalar ayrim ish turlarini anglatuvchi bir qancha tushuncha va atamalardan foydalanishga, bajarilgan ishdagi izchillikni so'zlab berishga to'g'ri keladi. Bular bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi, uning mantiqiy bog'liq ravishda grammatik jihatdan to'g'ri shakllanishiga imkon beradi va rivojlantiradi. Bolalarni mehnat fa'oliyatida o'zini anglashida tarbiyachining o'rni katta. Bolalarni mehnat faoliyatida o'zini anglab, o'zini boshqarishi to'g'ri shakllanmasa ular kelajakda turli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tarbiyachida kata mahorat talab qilinadi.

Xulosa.

Bolalarni mehnat fa'oliyatida o'zini anglashi bu o'zi ovqatlanishi, kiyimlarni kiyib yechishi, tarbiyachi biron ish qilsa unga taqlid qilib qaytarishi, ko'chada ko'rgan ishini qaytarishi [melitsiya, doktr, tarbiyachi, oshpaz] o'zini anglashning shaklidir. Bolalar hamma narsaga qiziquvcha hamda tez o'rganib tez uqub oladiga shaxs xisoblanadi. Shuning uchun bolaning yonida biron soz yoki biron harakatni bajarishdan oldin o'ylab qilsh kerak. Bolalarga mehnat fa'oliyati o'z hayotida bajaradiga barcha ishlari kiradi. Bolalar mehnat fa'oliyatini yosh xususiyatidan kelib chiqib o'rganishadi. Ularni to'g'ri yonaltirish biz va ota-onalarning muhim vazifasi hisoblana.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020 yil 22 dekabrda 802-sonli qaroriga 1- ilova Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti.

2. “Илк кадам” Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. Toshkent. 2018-yil

3. Sh.M. Mirziyoyev-“Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”-Toshkent-2021.

4. Sodiqova Sh. "Maktabgacha pedagogika " Toshkent- 2013y

5. Qodirova F. Toshpolatova Sh. Kayumova N. Azamov M.”Maktabgacha pedagogika” o‘quv qollanma. Toshkent, 2019y.

6. Tosheva Nurzoda Toshtemirovna. Methods and techniques of developing cognitive activities of primary school pupils //ACADEMICIA. An International Multidisciplinary Research Journal, 2020. № 10.(7.13.) Стр 80-87